SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

YUSUF SAMADOGLINING QATL KUNI ROMANI HAQIDA

Şohmurodova Şohista Bahodirjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti özbek tili yonalişi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Uşbu maqolada Yusuf Samadög‘lining «Qatl kuni» romanidagi obrazlar tizimi, ularning xarakter xususiyatlari, ruhiy kechinmalari hamda asar mazmunini ochib berişdagi badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Romandagi qahramonlar taqdiri, ularning özaro munosabatlari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi yoritiladi. Şuningdek, obrazlar orqali ilgari surilgan insoniylik, adolat, vijdon va ma’naviy qadriyatlar masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit sözlar

Yusuf Samad ög‘li, «Qatl kuni», roman, obraz, xarakter, ruhiy kechinma, badiiy tasvir, insoniylik, adolat.

Аннотация

В данной статье анализируется система образов в романе Юсуфа Самад оглы «День казни», особенности характеров персонажей, их душевные переживания и художественно-эстетическая роль в раскрытии содержания произведения. Рассматриваются судьбы героев, их взаимоотношения, внутренние противоречия и связь с социальной средой. Особое внимание уделяется вопросам человечности, справедливости, совести и нравственных ценностей, раскрывающихся посредством системы образов романа.

Ключевые слова

Юсуф Самад оглы, «День казни», роман, образ, характер, душевные переживания, художественное изображение, человечность, справедливость.

Yusuf Samadöğli (Yusif Səmədoğlu) 1935-yilning 25-dekabrida Ozarbayjonning Boku şahrida, maşhur şoir Samad Vurğun oilasida tuğilgan.1953-yil Moskva yozuvçilar uyuşmasiga qaraşli Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutini tamomlagan.“Ozarbayjon” jurnali tahririyatida adabiy hodim, nasr bölimi mudiri (1960-1965), J.Jabborli nomidagi “Ozarbayjon film” kinostudiyasida kinostudiya ssenariy tahririyati hay’ati a’zosi, boş muharriri (1965-1969), “Yulduz” jurnalining boş muharriri

(1976-1987) lavozimlarida faoliyat yuritgan. Ozarbayjon Yozuvçilar uyuşmasi kotibligi hay'ati a'zosi (nasr bölimi) bölgan (1991). "220 raqamli xona" (1960), "Gallaktika" (1973), "Qatl kuni" (1987) kitoblari çop etilgan.

"Qatl kuni" romani, "Yoddan çiqqan sözlar", "Közlar", "220 raqamli xona", "Gullar", "Semurğ quşi", "46 yilning öyinlari" hikoyalari adabiyot muhiblari tomonidan sevib öqiladi.

Yozuvçining "Qatl kuni" romani özbek tiliga tarjima qilingan va özbek kitobxonlari tomonidan iliq qarşi olingan. Yozuvci 1998 yilning 17 avgustida vafot etgan.

XX asr ozarbayjon adabiyotining yetuk namoyondasi Yusuf Samadöğli qalamiga mansub "Qatl kuni" romani nafaqat milliy adabiyot, balki butun turkiy xalqlar nasrida mavzu kölami va hajmi jihatidan oz orniga ega. Uşbu romanning şakli öziga xos bölib, unda uc davr-örta asrlar, XX asrning öttizinchi va yetmişinchi yillari aks ettirilgan. Bu davrlarda bölib ötgan voqea-hodisalarni muallif ustalik bilan bir-biriga bog'lay olgan,ya'ni har bir davrda bölayotgan hodisalar bir-birini taqozo etadi. Romanni öqib chiqqan har bir inson şunga tuşunadiki, ötmiş butunlay yöqolib ketmaydi, u bugungi kunda ham, kelajakda ham yaşayveradi.

Asarda ötmiş va kelajakni bog'lab turadigan vosita-**Bobo Koho tog'idir**. Asar peyzaj tasviri boşlanadi: "*Hali yulduzlar juda siyrak edi,böz samoda za'far şu'la bor edi, bu şu'la goh sönib borayotgandek xira tortar, goh par-par yona boşlardi.*Agar kimdir bu yerda bölsa, uzoq-uzoqlardan şamolning qarg'işini eşitardi:*Ey ikki oyoqli maxluqlar naslingiz qirilsin sizning!* Ötmiş voqealari hukmdor,uning maslahatchisi Xöja Anvar, şoir va jamiyki saroy a'yonlari bölib, özlari qilgan gunoh işlarini tog'da bölayotgan ob-havodan bilisgan..Bugungi kun qahramonlari Mahmud,Zamina, bemor,Salima xonim, Salahov,Muxtor Karimli kabi obrazlar harakatida körişimiz mumkin. Ular ham qachonki Bobo koho tog'ida falokat bölsa oşa kunni qatl kuni hisoblasgan.

Romanda asosiy e'tibor bir nechta personajlarga qaratilgan. Ularning har biri özining ichki kuraşlarini olib boradi. Bu kuraşlar asarda köpincha hal qiluvchi ahamiyatga ega bölib,har bir personajning öz qarorlarini qabul qilişda qanday qilib ma'naviy qarama-qarşiliklarga duch kelişi tasvirlangan. Qahramonlarning har biri öz qadriyatlarini saqlab qolişga intiladi,ammo ular jamiyatning qattiq me'yorlari oldida şaxsiy his-tuyg'ulariga

qarşi turişga majbur böladilar. Asarda Mahmud obrazi syujet voqealarini ösib borişiga xizmat qilgan. U hech narsadan qörqmaydigan, bemorlarni davolaş uchun hamma narsaga tayyor obraz. Asarda kuchli yomg‘ir böron bölişiga qaramasdan daryodan kechib ötib Zulfiqor otani davolaşga borgani kasbiga qanchalik mas’uliyat bilan yondaşganining yorqin dalilidir. Lekin u doim qörquv va şubha ichida yaşaydigan şifokor böladi. Kasalxonada yotib özining öy xayollari, körgan tuşlari va atrofda bölayotgan voqelik bilan yuzlaşadi. Uning ichki dunyosi davr zöravonligi, jamiyatdagi ma’naviy tuşkunlik va insoniy ojizlikni aks ettiradi. Mahmud timsolida muallif özligini yöqotayotgan, qörquv tufayli jim turişga majbur bölgan zamonaviy inson qiyofasini yaratgan. Zulfiqor ota — hayotning og‘ir sinovlarini boşidan kechirgan, el-yurt hurmatiga sazovor bölgan keksa, oqsoqol va nuroniy qariya. Uning ismi ramziy ma’noga ega bölib, adolatsizliklarga qarşi turuvchi mardlik, qat’iylik va haqiqatni talab qiliş fazilatlarini özida mujassam etgan. U Saricha ög‘li Muhammadni öldirib qöyib butun umr vijdon azobida yaşaydi. U özining ötmişdagi xatolari, vicdon azoblari va kechmişning og‘ir yuki ostida ezilib, oxiri şu ruhiy sarsonlik va chaqiruvga bardoş berolmay hayotdan köz yumadi,uning ölimi zamonlararo bog‘liqlik, qatag‘on davrining fojiali yakuni va xotira zanjirining uzilmasligini körsatib beruvchi ta’sirli palla sifatida namoyon böladi.

Ötmiş voqealarida hukmdor obrazi öz davrining mutlaq xöjayini,uning qölida minglab odamlarning taqdiri, hayoti va ölimi turibdi. Hukmdor uchun oddiy insonning qadri bir chaqaga ham arzimaydi. U öz hokimiyatini saqlab qoliş va öz hukmronligini körsatiş uchun har qanday şafqatsizlikka tayyor. Qanchalar qudratli va ulug‘vor bölişiga qaramasdan u ich-ichidan qörquv ichida yaşaydi. U atrofidagi har bir yaqin kişisidan, xizmatkorlaridan xiyonat kutardi va hech kimga işonmas edi. U köproq Xöja Anvarga suyanardi. Xoja Anvar uni chömiltirardi,ikkinchidan esa, issiq suvga kirgandan söng hukmdor axta joyidan qözg‘algan og‘riqqa chiday olmaganidan ingraşga tuşardi. U yaratganning Xoja Anvardan bölak biron-bir bandasi hukmdorni bunday ahvolda körişini istamasdi. Chunki Xöja Anvar ham aynan şu kasalga chalingan edi. Hukmdor haqni kuylovchi şoirni dorga osişga buyuradi va şu qilmişi uchun butun umr iztirob chekib dard bilan yaşaşga mahkum böladi..Natijada şu kun qatl kuni bölib, buyuk gunohga aylandi.

Odamlarni bir-biriga bog‘lab turgan narsa bu darddir. Dard şunday arqonki, u dunyoni belini kamar bilan tortib turadi, hammani bir-biriga jipslaştiradi. Kelajakdagi “bemor” obrazi.jamiyat uchun yozilgan asarlari Salahov tomonidan qaytarilaveradi. Bundan taşqari uni davralarga chqirib,hammani ichida tanqid qilinadi,fikrlari inobatga olinmaydi.bemorni tahqirlayotgan paytda öşa davrada bölganlarning birontasi bemor gapirgan gaplari tög‘riligini ayta olmaydi. Bu öşa paytda nafaqat oddiy insonlar,balki, e’tiborga molik,aql-huşi joyida yozuvchi-olimlar ham öz fikrini aytişdan qörqqanligidan,işidan va orzu-mansabidan ayrilib qolişni istamaganligidan dalolat beradi. Oqibatda bu işlar bemor yuragida bir dard bölib, töşakka yotib qoladi. Bemorning azob-uqubatlari faqat uning şaxsiy dardigina emas. U butun bir jamiyatning, qatag‘onlar girdobida ezilgan, haqiqatni aytolmay qiynalgan xalqning ma’naviy kasalligini ramziy tarzda namoyon etadi. Insonlarning ruhan ezilgani, qörquvda yaşagani ularning sog‘lomligiga ham soya taşlaydi. U Sadi afandini kundaligini öqiy boşlaydi. Sadi Afandining maşhur, lekin nomsiz kitobini tinmisiz öylayverib,harakatda uni topişga muvaffaq bóladi. Achinarli tomoni Salahov tomonidan ötkazilgan majlisda,bu haqida gap ochilib chop ettirmasdan yana bu mavzu yopiladi. Bemor yozuvchining qizi Salima orqali kitobni topadi, lekin bu dahşatli nomni eşitgan kuni ajaldan muhlat söraşga ham ulgirmay, jon beradi. Asardagi kulminatsiya ötmişda şoirning ólimiga ham, bugungi kun yozuvchisining ólimiga ham sababchi bólgan nom- **Qatl kuni** nomli kitobga bog‘lanadi. Sóngida ötmiş qahramonlarining Bobo Koho sari ketayotganda òlim tomonga, bugungi kun qahramonlarini ham chorlaşi sónggi manzil sari yakun yasaydi.

Uyqungiz şirin bölsin,tiriklar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. Modern Science and Research, 2(6), 1104-1106.

2. Odiljon ög‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI ÖZIGA XOSLIKLAR. IQRO , 2 (2), 777-785.

3. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. Modern Science and Research, 2(6), 848-853.

4. Baxtiyorjon ög‘li, S. J. (2023). ŞARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41

5. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILIŞLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, a. natural and social sciences, 3(3), 1318-1322

6. Qahhor Yölchiyev – Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. –C383-7.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC